

VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi 539- son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2023-yil 1-oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxona va tashkilotlarning yillar kesimida soni

(1-oktabr) holatiga ko'ra, birlikda)

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)




Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka yega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga yega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi,

(2023- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish surati, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (97,0 %), tashish va saqlash (89,1 %), savdo (86,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (77,8 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (74,8 %), axborot va aloqa (78,4 %), qurilish (76,9 %), sanoat (74,1 %) va boshqa turdagi xizmatlar (90,9 %) sohalariga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1- oktabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 42 663 tani tashkil etib, 2022-yilning shu davriga solishtirilganda 8 647 (51 310) taga yoki 83,1 %ga kamaygan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 34,0 % savdo, 18,6 % sanoat, 7,0 % qurilish, 5,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,3 % qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 3,8 % tashish va saqlash, 2,1 % axborot va aloqa, 2,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 22,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


2023- yil 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning hududlar kesimida soni va o'sish surati, %

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- oktabr holatiga 36 591 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar soni, shundan xususiy korxona – 8 253 ta, oilaviy korxona - 5 004 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyat – 22 861 ta, aksiyadorlik jamiyati - 49 ta va boshqa turdagi korxonalar - 424 tani tashkil etadi.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra 33,1 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,5 mingtaga yoki 120,0 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 22,9 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 mingtaga yoki 87,2 %ga kamayganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 759 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 426 taga yoki 109,8 %ga ko'payganni ko'rish mumkin.




Yangi tashkil yetilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (yanvar-sentabr oylarida)




2023- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar 6 489 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Farg'ona shahar (18,3%), Qo'qon shahar (7,9%), Marg'ilon shahar (7,2%), Toshloq tumani (6,1%), Quvasoy shahar (6,0%), Quva tumani (5,8%), Oltiariq tumani (4,9%), Dang'ara tumani (4,7%), Buvayda tumani (4,2%), Bag'dod tumani (3,9%), Qo'shtepa tumani (3,9%), O'zbekiston tumani (3,9%), Uchko'prik tumani (3,9%), Beshariq tumani (3,6%), Rishton tumani (3,5%), Farg'ona tumani (3,3%), Yozyovon tumani (3,1%), Furqat tumani (3,0%), So'x tumani (2,8%) hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, 1-oktabr holatiga ko'ra birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 1-oktabr holatiga ko'ra birlikda)




Hududlar bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1-oktabr holatiga ko'ra birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2023- yil 1- oktabr holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 646 tani tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 58 taga yoki 109,9 %ga o'sgan.

■ Ro'yxatdan o'tgan ■ Faoliyat ko'rsatayotgan ■ Yangi tashkil etilgan




Xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda



Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi (2023- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi

(1- oktabr holatiga ko'ra, yillar kesimida, birlikda)

	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Jami	387	431	516	573	445
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	25	26	27	28	21
Sanoat	229	248	279	298	229
Qurilish	9	12	24	33	32
Savdo	68	75	106	121	90
Tashish va saqlash	9	13	13	15	13
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13	15	16	17	14
Axborot va aloqa	4	4	4	6	3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	8	8	9	10	9
Boshqa turlar	22	30	38	45	34

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimida soni

(2023- yil 1- oktabr holatiga, birlikda)


	Ro'yxatga olinganlar	2023- yil yanvar-sentabr	
		yangi tashkil etilgan	tugatilgan
Viloyat bo'yicha	646	53	5
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	202	19	2
Qo'qon	78	2	-
Quvasoy	41	3	-
Marg'ilon	36	2	-
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	29	-	-
Qo'shtepa	13	1	-
Bag'dod	19	5	-
Buvayda	13	-	-
Beshariq	17	4	-
Quva	26	3	-
Uchko'prik	28	6	1
Rishton	13	-	1
So'x	9	-	-
Toshloq	20	3	-
O'zbekiston	32	2	-
Farg'ona	27	1	1
Dang'ara	20	-	-
Furqat	15	2	-
Yozyovon	8	-	-

Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1-oktabr holatiga 7 595 tani tashkil etib, ulardan 5 004 tasi yoki 65,9 % faoliyat yuritmoqda.


Oilaviy korxonalarning yillar kesimidagi soni

(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni,

(2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(birlikda)

	<i>Ro'yxatga olinganlar</i>	<i>2023- yil yanvar-sentabr</i>	
		<i>yangi tashkil etilgan</i>	<i>tugatilgan</i>
Viloyat bo'yicha	7 533	538	134
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	772	67	19
Qo'qon	566	53	31
Quvasoy	389	85	17
Marg'ilon	478	23	11
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	616	53	15
Qo'shtepa	212	33	5
Bag'dod	389	21	16
Buvayda	336	14	12
Beshariq	318	25	14
Quva	276	34	15
Uchko'prik	368	25	5
Rishton	737	62	31
So'x	154	37	4
Toshloq	270	17	9
O'zbekiston	479	43	34
Farg'ona	286	35	8
Dang'ara	528	93	29
Furqat	337	39	13
Yozyovon	84	9	5

Oilaviy korxona – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.